

ТОҶОА ҳужжат

**Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va yuridik shaxslar uchun maishiy chiqindilar(M.CH.)ni olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish**

**SHARTNOMASI № 02/1**

**MFY**

«13» 01 2022-yil

Farg'ona sh

Bundan buyon matnda "Ijrochi" deb ataluvchi korxonaga to'g'risidagi nizom asosida faoliyat olib boruvchi « **Maxsus garant avto servis» MCHJ** rahbari **I.Isroilov** bir tomondan va bundan buyon matnda "Buyurtmachi" deb nizom asosida faoliyat olib boruvchii **Farg'ona tumani xalq ta'limi bo'limi nomidan rahbar G.Ortiqov** ikkinchi tomondan. quyidagilar to'g'risida shartnoma tuzdilar:

**1. Shartnoma mazmuni**

- 1.1. "Buyurtmachi" topshiradi, "Ijrochi" esa shartnomada ko'rsatilgan haq evaziga Buyurtmachi tomonidan maxsus belgilangan manzildan bir oyda 4 marotaba \_\_\_\_\_ dona (750l. 1100l.20m3) chiqindi saqlash qutilardagi M.Ch.ni tashib chiqib ketish ishlarini bajarishni o'z zimmasiga oladi, "Buyurtmachi" esa to'lov jadvali asosida xizmat to'lovlari to'lab borishi shart.
- 1.2. M.Ch.larning umumiy hajmi bir oyga \_\_\_\_\_ m3

**2. Hisob-kitob qilish tartibi**

- 2.1. Ushbu shartnomani imzolash paytida amaldagi narx xar bir m3 M.CH. uchun \_\_\_so'm. QQS (15%) bilan 46 000 so'm.
- 2.2. Shartnoma bo'yicha bir oylik ko'zda tutilgan to'lov summasi \_\_\_ so'mni tashkil etadi, shundan, byudjet mablag'lari hisobidan 23 920 000 so'm, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan \_\_\_so'm.
- 2.3. Har oyning 10 sanasigacha keyingi oyning rejayiy ish hajmiga (byudjet tashkilotlarida shartnomaga ilova qilingan to'lov jadvaliga) qarab oldindan 100 foiz miqdorida to'lovlarni amalga oshirish.
- 2.4. Har oyning 10 sanasigacha o'tgan hisobot oy uchun ko'rsatilgan xizmat to'lovlari "Ijrochi"ning hisob raqamiga bajarilgan ish dalolatnomasi asosida to'liq to'lab berish.

**3. "Buyurtmachi" majburiyatlari**

- 3.1. Maishiy chiqindilarni yig'ilish hajmi va olib chiqib ketish muddatiga binoan kerakli miqdorda chiqindilar yig'ish qutilarini alohida shartnomalar va to'lovlar asosida sotib olish.
- 3.2. M.Ch tashlanadigan qutilarni qurilish va yirik hajmdagi chiqindilar, shox-shabbalar bilan to'ldirmaslik, aksincha, ularni maxsus joyga yig'ish hamda bu chiqindilarni tashib ketish uchun alohida bir marotabalik shartnoma tuzish.
- 3.3. Chiqindi saqlash qutilari joylashgan maydonchalar va chiqindi to'plash qurilmalariga avtomashinalarning erkin yaqinlashishini va chiqindi qutilarini doimo soz xolda saqlashni ta'minlash.
- 3.4. M.Ch ni o'z vaqtida tashib chiqib ketilishini doimiy nazorat qilish, tasdiqlangan yo'nalish jadvali buzilgan hollarda 99898-575-44-46 telefoniga telefonogramma yo'llash orqali "Ijrochi"ga ma'lumot berish.
- 3.5. Bajarilgan ishning hajmini "Ijrochi"ning hujjatlarida "Buyurtmachi" vakilining imzosi va korxonaga muxri bilan tasdiqlab borish.
- 3.6. Har oyning boshida o'tgan oyda bajarilgan ish hajmini bajarilganini ko'rsatuvchi hisob dalolatnomasi rasmiylashtirish.
- 3.7. "Buyurtmachi" maishiy chiqindilarni Markaziy ko'chalarining belgilangan joylariga kech soat 17-00 dan ertalabki 6-00 gacha olib chiqish ogohlantiriladi.

**4. "Ijrochi" ning majburiyatlari**

- 4.1. Alohida shartnoma va to'lovlar asosida "Ijrochi" "Buyurtmachi"ga chiqindi yig'ish qutilarni kerak bo'lgan miqdorda sotish.
- 4.2. "Buyurtmachi" hududidan M.Ch tashlanadigan maxsus qutilardan maxsus avtomashinalarda jadval asosida chiqindilarni olib chiqib ketilishini ta'minlash.
- 4.3. "Buyurtmachi" ning buyurtmasiga asosan qo'shimcha to'lov hisobiga qurilish va yirik hajmdagi chiqindilarni, shox-shabbalarni olib chiqib ketish uchun transport ajratish.
- 4.4. "Buyurtmachi" tomonidan M.Ch ni o'z vaqtida olib chiqib ketilmagani to'g'risida ma'lumot kelib tushgandan so'ng 1 kun muddat ichida "Buyurtmachi" hududidan chiqindilarni olib chiqib ketish.
- 4.5. Biriktirilgan yo'nalishda sanitar tozalik nazoratini olib borish.

### 5. Tomonlarning javobgarliklari

- 5.1. "Ijrochi" tomonidan M.Ch kelishilgan vaqtda olinmagan taqdirda "Buyurtmachi" 99898-575-44-46 telefon orqali "Ijrochi" ning vakilini dalolatnoma tuzish uchun chaqirtirishi kerak. Agar "Ijrochi" ushbu xabarnomadan so'ng o'z vakilini dalolatnoma tuzish uchun yubormasa, yoki 24 soat ichida M.Ch ni olib chiqib ketmasa, "Buyurtmachi" jamoatchilik ishtirokida dalolatnoma tuzadi va ushbu dalolatnoma aybdorga nisbatan shartnomada ko'rsatilgan jazo turlarini qo'llash uchun asos hisoblanadi.
- 5.2. "Ijrochi" o'z vaqtida M.Ch ni olib chiqib ketmaganligi uchun ikki tomon vakillari tomonidan imzolangan dalolatnoma asosida har bir kun uchun olib chiqib ketilmagan M.CH ni hajmi qiymatidan 0.4 foiz miqdorida, lekin umumiy summa bajarilmagan ish summasining 50 foizidan oshmagan miqdorda "Buyurtmachi"ga penya to'laydi.
- 5.3. "Buyurtmachi" shartnomada ko'rsatilgan muddatdan kechiktirilgan har bir kun uchun belgilangan muddatda to'lanmagan summaning 0.4 foizi miqdorida, lekin umumiy summa bajarilmagan ish summasining 50 foizidan oshmagan miqdorda "Ijrochi" ga penya to'laydi.
- 5.4. Jarima va penya to'lash tomonlarni shartnoma shartlarini bajarishdan ozod etmaydi.

### 6. Nizolarni hal qilish tartibi

- 6.1. Shartnomani bajarish paytida yuzaga kelgan muammolarni tomonlarning o'zaro muzokaralari orqali hal qilinadi, muammolar hal qilinishi mumkin bo'lmagan hollarda tegishli sud tomonidan yoki hakamlilik sudi tomonidan hal qilinadi.
- 6.2. Tomonlarning manzili, korxonasi nomi, hisob raqami o'zgargan taqdirda hamda M.Ch hajmi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar paydo bo'lganda bir tomon ikkinchi tomonga 10 kun ichida yozma habar beradi.
- 6.3. Shartnomaning 1.2. bandida ko'rsatilgan M.Ch ning hajmi "Buyurtmachi" ning aybi bilan taqdim etilmasa, yoki "Buyurtmachi" "Ijrochi" ning yuk tashish hujjatlarini rasmiylashtirishdan bosh tortsa, "Ijrochi" jamoatchilik vakili ishtirokida dalolatnoma tuzadi. Ushbu dalolatnoma ish to'liq miqdorda bajarildi deb hisoblanishiga va to'liq miqdorda to'lov amalga oshirilishiga asos bo'ladi.

### 7. Fors-major

- 7.1. Fors-major holati sodir bo'lganda tomonlar shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlardan ozod etiladilar (korxonaning tugatilishi, rahbar yoki javobgar shaxs o'zgarishi, moliyaviy qiyinchiliklar kabilar fors-major holatiga kirmaydi).

### 8. Qo'shimcha shartlar

- 8.1. "Ijrochi" hom-ashyo, yoqilg'i - moylash maxsulotlari va eng kam oylik ish haqi miqdori o'zgarishi munosabati bilan belgilangan tartibda ikki tomonlama xizmat narxlarini o'zgartirishga haqlidir va u "Buyurtmachi" ni bu to'g'rida yozma ravishda ogohlantiradi.

### 9. Shartnomaning muddati

- 9.1. Shartnoma G'aznachilik bo'limidan ro'yxatga o'tgandan so'ng amalga kiritiladi hamda ushbu shartnomaning amal qilish "31" dekabr 2022-yilgacha belgilanadi.
- 9.2. Shartnomani muddatidan oldin to'xtatmoqchi bo'lgan tomon ikkinchi tomonni bu haqida bir oy oldin yozma ravishda ogohlantiradi, aks holda shartnoma shartlari o'z kuchini yo'qotmagan hisoblanadi.
- 9.3. Ushbu shartnoma bir hil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilib, bir nusxasi "Buyurtmachi" da, ikkinchi nusxasi "Ijrochi" da saqlanadi.

### 10. Taraflarning yuridik manzilgohlari va to'lov rekvizitlari

#### "Buyurtmachi"

Farg'ona tuman xalq ta'limi bo'limi  
Manzil Farg'ona tuman Vodil qishlig'i  
Bank Markaziy bank Toshkent  
X/r 100022860302337092100075067

MFO-00014 INN 200196795

Rahbar Ortiqov



#### "Ijrochi"

«Maxsus garant avto servis» MCHJ  
A.Qodiriy ko'chasi, 112-uy 17-xona  
Milliy bank Farg'ona bo'limi  
x/r: 20208000200376450001  
3016729 MFO 00493



Rahbar I. Isroilov  
Tel: 99898-575-44-46

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDAGI HUQUQIY  
XULOSA**

**№ RZ5442167205**

1. Loyihaning turi: Hharnoma
2. Loyihaning nomi: "Maxsus garant avto servis" MHJ bilan Farg'ona tumani xalq ta'limi bo'limi o'rtasida tuzilgan 2022-yil \_\_-yanvardagi 02/1-sonli "Maishiy chiqindilar (M.Ch.) ni olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish" to'g'irisida.
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:  
Farg'ona tumani xalq ta'limi bo'limi tomonidan 2022-yil 12-yanvar kuni ishlab chiqilib, dasturga kiritilgan.  
Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra

**XULOSA:**

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Farg'ona tumani yuridik xizmat  
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti



K. Yakubova

2022-yil 12-yanvar